Ona tili

I qism

1



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

D. Sh. Yuldasheva

Ona tili
1-sinf
I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

novda
edutainment

Toshkent – 2023

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
MAKTABGACHA
33-
O'RTA
MAKTAB
№ 30
5. 01. 24

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O'zb-922
Yu 60

Yuldasheva D. Sh.
Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik I qism / D. Sh. Yuldasheva. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 96 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

ISBN 978-9943-9708-6-1

© D. Sh. Yuldasheva
© "Novda Edutainment", 2023

Shartli belgilar:



Og‘zaki bajaring



Yodda tuting



O‘ylab ko‘ring



O‘zingizni sinab ko‘ring



Uyga vazifa



Yozma bajaring


Kirish. Ona tili nima?



Ona tilim – o'zbek tili.

1-mashq. Rasmlarga qarang.



O'zbek tili – mening ona tilim.



Mi lengua maternal es el Español.



中文是我的母語

- Turli tillarda berilgan gaplarni o'qiy oldingizm Ularni tushundingizmi? Javobingizni izohlang
- Ona tilingiz bo'lgan o'zbek tilidagi gapni ko'chiring.

Yodda tuting! Qoidani ko'chirib oling.

O'zbek tili – mening ona tilim.
O'zbek tili – men yashayotgan O'zbekiston Respublikasining davlat tili.



2-mashq. She'rni ifodali o'qing.

Ona tilim



Ona tilim – yurak qa'rimdan
Mehr bo'lib sochilgan jarang.
Qulog'imga go'dak paytimdan,
Alla bo'lib singgan ohang.

Ona tilim – necha asrlar
Kurashida yenggan polvonim.
Necha ajdod, necha nasllar,
Suyib o'tgan turkiy zabonim.

Iroda Umarova

3-mashq. O'qing. Maqolni ko'chiring.

Tilingda bo'lsa boling,
Kulib turar iqboling.

- Maqoldagi *boling* so'ziga yaqin ma'noli so'z toping.

4-mashq. O'qing. Quyida berilgan so'zlardan mosini tanlab, gapni to'ldiring.

... – bu o'zbek xalqining ona tilidir.

Tanlash uchun so'zlar: *ingliz tili, yapon tili, rus tili, o'zbek tili, turk tili.*

- *Til* so'zi nutqda yana qanday ma'nolarda qo'llaniladi? Fikringizni izohlang.

Olim sōzi oz,
Oz bōlsa ham soz.

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Matn gaplardan tuziladi.
Mazmunan bog‘langan ikki yoki undan ortiq gap **matn** deyiladi.



1-mashq. O‘qing. Matnga sarlavha qo‘ying.

Ertalab quyosh charaqlab chiqdi. Tomlarda osilib turgan muz sumalaklar yaltiray boshladi. Yerdagi qorlar erib ketdi. Chumchuqlar shodon chirqilladi.

- Matnda nechta gap ishtirok etgan?
- Matndagi gaplar ma’no jihatdan o‘zaro bog‘langanmi?
- Siz ham shunga o‘xshash to‘rtta gapdan iborat matn tuzing.

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Har bir gap biror tugallangan fikrni ifodalaydi.
Gapdagi so‘zlar ma’no jihatdan bir-biriga bog‘lanadi.



2-mashq. **O‘qing. Berilgan so‘zlardan maqol tuzing.**

qadrini bilmagan qadrini o‘z Vatan bilmas

O‘zingizni sinab ko‘ring! **Akmalga qoidalarni to‘ldirishda yordam bering.**

1. Matn _____lardan iborat bo‘ladi.
2. Gap _____lardan tuziladi.
3. Gap _____fikrni ifodalaydi.
4. Gapdagi so‘zlar bir-biri bilan _____.



3-mashq. **Berilgan so‘zlardan gap tuzing va yozing.**

1. bilan, lola, bola, gul, bilan, ona
2. yurting, beshiging, oltin, ona
3. tanda, sog‘lom, aql, sog‘
4. o‘yla, keyin, so‘yla, avval

Mard maydonda sinalar.

Ichki nutq



so‘zlash tinglash o‘qish yozish

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Yer yuzida ko‘plab tirik mavjudotlar yashaydi. Ulardan faqat insongina nutqqa ega.



- Yuqoridagi fikrdan nimani tushundingiz?
- Hayvonlar tovushi ham nutq sanaladimi?

1-mashq. Rasmlarga qarang va uni ta’riflang.



Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Og‘zaki nutq – bu biz eshitayotgan yoki talaffuz qilayotgan nutq. “Og‘zaki” so‘zi “og‘iz” degan so‘zdan olingan bo‘lib, og‘iz orqali ifoda etiladigan nutq hisoblanadi.

Yozma nutq – bu biz o‘qiydigan yoki yozadigan nutq. Yozishda biz harflar va yozma belgilardan foydalanamiz.



- Og‘zaki va yozma nutq bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

2-mashq. Shartlarni bajaring va izohlang.

1. Birinchi va ikkinchi ifodalarni so‘z bilan yozing. Yozishda nechta so‘z ishlatdingiz?

$5 > 3$ $3 + 5 = 8$

2. O‘qing va nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zni qo‘yib, fikrni yakunlang.

Nutqda asosiy vazifani so‘zlar bajaradi. Faqat insongina so‘zlardan foydalanadi. Shuning uchun ... faqat insonga xos.

3-mashq. Hayvonlar chiqaradigan tovushlarni yozing.

- It insonga o‘ziga xos tarzda murojaat qiladi, lekin bu nutq emas. Nima uchun? Javobingizni izohlang.



4-mashq. O‘qing. Bu qaysi ertak?



Yana nima uchun kelding? “Qaynar xumcha”ni olding, “Ochil dasturxon”ni olding, yana nima kerak?



Meni bu gal ham aldading, Laylakvoy. “Ochil dasturxon” o‘rniga boshqa bir dasturxon beribsan. Endi sendan bir narsa so‘rayman, menga “Ur to‘qmoq”ni ber.

- Sizga ertakni topishda qaysi ma’lumotlar yordam berdi?
- Ertak qahramonlarining suhbatini siz qaysi nutqqa kiritasiz: og‘zakimi yoki yozma?
- Ertak mazmunini ifodalash uchun siz qaysi nutqdan foydalanasiz?

5-mashq. Topshiriqni o‘qing.

Har bir insonning nutqi uni birinchi marta aytgan so‘zidan boshlanadi. Ota-onangizdan so‘rang, siz birinchi marta qaysi so‘zni aytgansiz? So‘ng quyidagi gaplarni yakunlang.

- Mening birinchi marta aytgan so‘zim – ... . Shu so‘zdan mening ... boshlangan.

Odob – insonning zeb-u ziynati

1-mashq. Topshiriqni bajaring.

- Ushbu harflarni ayting: a, k, d, i, u, o.
- Ular qanday tovushlarni bildiradi? Har bir harfni ikki marta yozing.
- Tovush va harf o‘rtasida qanday farq bor?
- Ushbu harflar bilan boshlanuvchi qanday so‘zlarni bilasiz? Misollar keltiring.

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.



Tovushlarni talaffuz qilamiz va eshitamiz.

O‘zbek tilida 30 ta tovush bor.



2-mashq. Topshiriqni bajaring.

- Rasmni ta'riflang.
- Rasm asosida oila mavzusida gaplar tuzing.
- Tuzgan gaplaringizda oila a'zolari, qarindoshlar nomlaridagi bitta harfni boshqa harf bilan shunday almashtiringki, u boshqa bir yaqin qarindosh nomiga o'zgarsin.
  Namuna: buvi – buv....
- Topgan so'zlaringizni yozing.



Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Biz talaffuz qilayotgan va eshitayotgan barcha so‘zlar tovushlardan iborat.

Har bir tovush ma’lum bir harf bilan ifodalanadi.

So‘zdagi har bir tovush va har bir harf o‘z o‘rniga ega. Agar siz so‘zdagi bitta tovush (harf)ni o‘zgartirsangiz, u holda so‘zning ma’nosi o‘zgaradi yoki yangi so‘z hosil bo‘ladi.



3-mashq. She’riy ertakni o‘qing va voqealarni ko‘z oldingizga keltiring.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan,
IT bilan OT bo‘lgan ekan.
IT – katta, chopqir bo‘lgan,
OT – kichik, topqir ekan.
IT – har doim kishnagan,
OT – har vaqt irillagan.
IT – somonni xushlagan.
OT – suyakni tishlagan.



- Ertakda nimalar chalkashib ketgan?
- Berilgan ertak to‘g‘ri ifodalanishi uchun nimalarni o‘zgartirish kerak?
- O‘z javobingizni tekshirish uchun ertakni oxirigacha o‘qing.

Kimdir qoidaga qarshi,
“IT”ni “OT”ga adashtirdi.
“OT”ni “IT”ga o‘zgartirib,
Hammasini chalkashtirdi.

4-mashq. She’rni ovoz chiqarib o‘qing.

G‘alati sehrgar

Men mashhur, zo‘r sehrgar,
Sehrlayman bir zumda.
Avval boshdan sovunni,
Aylantirdim qovunga.
Keyin ikki sonidan,
Yasab qo‘ydim ukkini.
Sehrim kuchi bu tunni,
O‘zgartirdi zo‘r kunga.



Berib katta mehrimni,
Yana sinab sehrimni,
Olib qizil lolani,
Paydo qildim bolani.
Mana shunday jodulab,
Lol qoldirdim hammani.
Siz ham do‘stlar, albatta,
Sinab ko‘rib kuchingiz.
Jodulab siz so‘zlarni,
Zo‘r sehrgar bo‘lingiz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RISHTON TUMANI
TA’LIMI BO‘LIMI
O‘RTA TA’LIM
MAKTABI
№ 36

Kitob – bilim buloqi,
Oquvchining ortoqi.

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga bitta harf qo‘shib, yangi so‘zlar hosil qiling.

Namuna: ayiq – qayiq

- anjir – ...anjir
- don – don...
- baho – baho...
- bol – bol...
- anor – an...or
- unar – ...unar
- tog‘ – tog‘...
- qish – ...qish

Foydalanish uchun harflar: z, q, a, h, r, o‘.

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Biz harflarni yozamiz, ko‘ramiz va o‘qiymiz. O‘zbek tilida 29 ta harf bor.



2-mashq. Tez aytishni o‘qing. Bir tovush bilan farq qiluvchi so‘zni toping.

Eshik oldida buloq,
Buloqdan ichar uloq,
Uloqcham uzun quloq.



3-mashq. Matnda qo‘llanilgan rasmlarni so‘zlarga almashtirib, matnni o‘qing.

Bizning  katta.

Bu qizil . U  o‘sadi. Bu xushbo‘y . Ishkomda qop-qora  pishgan. Menga shirin  va  juda yoqadi. Bog‘imizdagi mevalarni bobom bilan birgalikda parvarish qilamiz.

- Tasvirlangan mevalar nomini yozing.
- *Olma, olxo‘ri* so‘zlaridagi harf va tovushlarni tahlil qiling.

4-mashq. O‘qing. Harflar o‘rnini shunday almashtiringki, so‘zlar ma’noga ega bo‘lsin.

Mkatab

datafr

raar

pilyoa

yotsiq

Odobning boshi – til.

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O‘o‘	G‘g‘	Shsh	Chch	ng	’

1-mashq. **Rasmni kuzating. Buyumlarni nomiab, alifbo tartibida yozing.**



Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Alifbo – bu ma’lum bir tartibda joylashgan harflarning ketma-ketligi.

O‘zbek alifbosida 29 ta harf bor. Unda 3 ta (ch, sh, ng) harf birikmasi, 1 ta tutuq belgisi (’) bor.



2-mashq. Harfni toping.

Bu harf

- olma, odam so‘zlarida
- so‘z boshida
- bino, shifo so‘zlarida
- so‘z oxirida
- kon, son so‘zlarida
- so‘z o‘rtasida

Bu qaysi harf?

3-mashq. Sinfdoshlaringizning ismini alifbo tartibida yozing.

4-mashq. Berilgan so‘zlardan bitta harfni olib tashlab, yangi so‘z hosil qiling.

ota qayiq bola kalla soy

dona ziyrak bosh quloq

- Hosil qilgan so‘zlaringizni juftlab yozing.
  Namuna: zirak – zira

1-mashq. O‘zingizni sinab ko‘ring.

1. Biz eshitayotgan yoki talaffuz qilayotgan nutq qanday nutq?
A) yozma nutq
B) og‘zaki nutq
D) ifodali gap
E) nutq
2. Quyidagilarning qaysi biri matn hisoblanmaydi?
A) so‘z
B) ertak
D) hikoya
E) she’r
3. O‘zbek tilidagi unli tovushlar to‘g‘ri berilgan javobni toping.
A) a, o, d, u, e, p
B) r, q, s, j, d, v
D) a, o, i, u, o‘, e
E) o‘, k, i, sh, t, m
4. “Istiqlol” so‘zida nechta undosh tovush bor?
A) 3 ta;
B) 6 ta;
D) 4 ta;
E) 5 ta.

2-mashq. O‘ylab ko‘ring. Shunday so‘zlarni topingki, o‘ng tomondan ham chap tomondan ham o‘qiganingizda bir xil so‘z hosil bo‘lsin.

Namuna:



quduq




qovoq



kiyik

3-mashq. Boshqotirmani yeching.



1. Asalxo‘r hayvon.
2. Qizlar ismi va gul nomi.
3. Ovqat suzishda foydalaniladigan anjom.
4. Bir to‘p bilan 11 kishi o‘ynaydigan sport turi.
5. ... – bilim bulog‘i, o‘quvchining o‘rtog‘i.
6. Inson husni va ziynati.

4-mashq. So‘zlarni kataklarga to‘g‘ri joylashtiring.



fazogir

fazo

yulduz

osmon

istiqbol

5-mashq. **Rasmlar asosida hikoya tuzing va yozing. Yozgan hikoyangizda unli harflarni topib, tagiga chizing.**



Baxt belgisi – bilim.

1-mashq. She'rni ko'chiring. Javobini toping.

Olti qondosh, birodar
Yashaydi bir varaqda.
Gar bo'lmasa oltovlon,
So'zlarimiz har yoqda.

- Unli tovushlarni ifodalagan harflar tagiga chizing

Yodda tuting! Qoidani ko'chirib oling.

Havoning og'iz bo'shlig'idan erkin, to'siqqa uchramay chiqishidan hosil bo'ladigan tovushlar unli tovushlar deyiladi.
Unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi.
Unli tovushlar: a, o, i, e, u, o'.



2-mashq. Rasmlarda berilganlarning nomini ayting. Faqat unli tovushlar bilan boshlangan so'zlarni yozing.



3-mashq. O‘qing. Unli tovushlarni toping.

shaftoli	tomorqa	bog‘
karvon	chumchuq	hosil

- Ko‘chiring va unli tovushlar tagiga chizing.

4-mashq. O‘qing. She’riy parchalarni yakunlang.

Yangi yilda bezatar barcha,
Quvonch keltirar bizlarga ... .



Tunda ko‘rsatar chiroy,
Osmondagi to‘lin ... .



Xamir qilishda kerak,
Bizlarga doim ... .



Ko‘rinishdan xuddi so‘roq,
O‘t o‘rganda kerak ... .



- Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib yozing. Ulardagi birinchi harf tagiga chizing. Ular qaysi tovushdan boshlangan?

Assalom, aziz, jonajon,
Allalab ulgaytirgan onajon.

1-mashq. Tushirib qoldirilgan A va O harflarini to‘g‘ri qo‘yib, ismlarni daftaringizga to‘liq yozing.

1. [A] km [a] l
2. N [a] z [a] k [a] t
3. R [a] vsh [a] n
4. [a] z [a] d
5. S [a] lih [a]
6. [a] z [a] m [a] t

2-mashq. Tez aytishni tez o‘qing va ko‘chiring. A unlisining tagiga chizing.

Ayiqpolvon asalxo‘r,
Axir azal asal zo‘r.



3-mashq. Topshiriqni bajaring.



A va O harflari qatnashgan ism tanlang. Aytaylik, qahramoningiz do‘stiga xat yozdi. Biroq uning yozgan xatida xatolar bor ekan.
Xatni o‘qing. Xato yozilgan so‘zlarni toping va to‘g‘rilab ko‘chiring.

Salom do‘stim Bohodir!

Sog‘liqlaring yaxshimi?
Men senga buvim yoshaydigan qishloq haqida so‘zlab bermoqchiman. Bu qishloqni Kottaqo‘rgon deb atashadi. Qishloqdan kotta soy oqib o‘tadi. Tongda mayin shomol esib turadi. Bu yerning hovosi musoffo. Menga bu yerda tepalikdan quyosh batishini tamosha qilish juda yoqadi. Seni ham shu qishloqqa toklif qilaman. Ko‘rishguncha xayr.

Do‘sting ... .

4-mashq. A va O unlisini to‘g‘ri qo‘yib ko‘chiring.

k..r..m j..h..n b..h.. b..h..r d..vl..t

Ish ustasidan qo'rqar.

1-mashq. Akmalning do'stlari ko'p. Ularning ismidagi I va U unlilarini to'g'ri qo'yib ko'chiring.

1. ☐ m ☐ djon
2. D ☐ lf ☐ za
3. ☐ lhom
4. ☐ l ☐ g'bek
5. M ☐ b ☐ na
6. ☐ broh ☐ m

2-mashq. Rasmdagi kasb-hunar nomlarini yozing. I va U harflari tagiga chizing.




- Kelajakda siz kim bo'lmoqchisiz? Nima uchu
- Siz tanlagan kasb-hunar nomida I yoki U un tovushi bormi?

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Umr, mehr, sehr, qadr so‘zlaridagi qator kelgan undoshlar orasida qisqa i tovushi eshitilsa ham yozuvda i harfi yozilmaydi.
Turp so‘zida r tovushidan keyin qisqa u eshitilsa ham yozuvda u harfi yozilmaydi.





3-mashq. Topishmoqning javobini toping.

Qizil ko‘ylagi xol-xol,
Suygani gul va nihol.
Gul bargida jon saqlar,
Issiq kunlarni yoqlar.
Qo‘ng‘izlarning yulduzi,
Topdim, budir ... .



- Ko‘chiring. I va U unlisi tagiga chizing.

Ozbekiston –
kelajagi buyuk davlat.


1-mashq. Hikoyani o‘qing.

Do‘stlar

O‘ktam va Erkin inoq do‘st. Do‘stlar maktabda a’lo baholarga o‘qishadi. Darsdan so‘ng ular o‘zlari qiziqqan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishadi.

O‘ktam bo‘sh vaqtlarida akasi Elyorga televizor, telefon va boshqa buzilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, elektr asboblarini tuzatishga ko‘maklashadi.

Erkin esa jonzotlarni boqishga qiziqadi va opasi O‘g‘iloy bilan birga hovlida jo‘ja, o‘rdak, xo‘roz, qo‘y va echki boqadi. Hovlidagi kichik tomorqada turli ekin va sabzavot ko‘chatlarini yetishtiradi.



- Siz bo‘sh vaqtingizda nimalar bilan shug‘ullanasiz?
- Hikoyadan O‘ va E unlilari bilan boshlangan so‘zlarni topib yozing.

2-mashq. O‘qing. She’r nima haqida ekan?

To‘p

To‘pim to‘p-to‘p etasan,
Ursam, uchib ketasan.
Havolanib nariga –
Do‘stlarimga ketasan.
O‘ynatasan ko‘zimni,
Hovliqtirib o‘zimni.
Biroq ko‘proq o‘ynasam,
Terlatasan yuzimni.

Zafar Diyor

Ko‘chiring. She’rdagi O‘ va E unlilarining tagiga chizing.

To‘p yordamida o‘ynaladigan qanday o‘yin hamda sport turlarini bilasiz?

Havolanib so‘ziga ma’nodosh so‘z topib, yozing.



1-mashq. Savollarga og‘zaki javob bering.

- Qanday tovushlar unli tovushlar deb ataladi?
- Unli va undosh tovushlarning farqi nimada?
- Tilimizda nechta unli tovush bor? Ularni ifodalovchi harflar nechta?
- Unli tovushlar so‘zlarda nima hosil qiladi?
- Misollar bilan fikringizni izohlang.

2-mashq. Birgalikda o‘ynaymiz.

1. Lablaringiz yordamida unli tovushlarni ovoz chiqarmay sinfdoshlaringizga ko‘rsatib bering.

2. Unli tovushlar yordamida so‘z ishtirokisiz yoqtirgan kuyingizni kuylab bering.



3-mashq. Nuqtalar o‘rniga shunday bir harf qo‘yingki, yangi so‘z hosil bo‘lsin.

o‘roq – .s.o‘roq	elak – ...elak
eshik – ..t.eshik	erk – erk a
o‘rik – ...o‘rik	o‘ra – .q.o‘ra

Foydalanish uchun harflar: t, k, s, q, ch, a.

4-mashq. Maqolni o‘qing va izohlang.


yaprog‘i bilan ko‘rkam,


– mehnati bilan.

- Ko‘chiring. Maqolda qaysi unli harf yo‘q?
- Yaproq, ko‘rkam so‘zlariga ma’nodosh so‘zlarni toping va yozing.

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘z qo‘ying. Javobni toping, unlilar tagiga chizing.

- Quyon emas, uzun ...,
  Ot emas, to‘rtta ....
- Yer tagida oltin ...,
  U hammaga bo‘lar ....

Foydalanish uchun so‘zlar: qoziq, quloq, oziq, tuyoq.





Vatan ostonadan boshlanadi.

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Undosh tovushlar ovoz va shovqindan iborat. Ularni talaffuz qilganda havo nutq a’zolari: til, lablar, tishlar tomonidan to‘siqqa uchraydi.

O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng.



1-mashq. **Tasvirlangan mevalar nomini yozing.**



- *Behi, banan, xurmo* so‘zlarini namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *Nok* — *3 ta tovush, 3 ta harf, 2 ta undosh, 1 ta unli.*

2-mashq. **Berilgan so‘zlarning keyingi bo‘g‘inini shunday almashtiringki, natijada yangi so‘z hosil bo‘lsin.**

qaymoq, musiqa, kapgir, maydon,
kampir, qalqon, qopqon, javon, taroq

3-mashq. **So‘zlarni o‘qing.**

o‘qituvchi osmon maktab chumoli ilon
ruchka asalari uzum tarvuz narvon

- Avval unli harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni, keyin esa undosh harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni alohida ustunlarda yozing.

Hunar – kunardan unar.

1-mashq. **So‘zlarni o‘qing. X va H tovushlarining talaffuzi va imlosiga ahamiya bering.**



X harfi

xurmo
xushbo‘y
xonadon
Xitoy
xizmat
xaridor
xursand
xazon
axloq
daraxt

H harfi

hasharot
hid
havo
shahar
hayot
mahalla
anhor
hazil
aholi
mehmon



- Bu tovushlar talaffuzida qanday farq bor?

2-mashq. **Tushirib qoldirilgan harfni topib, ko‘chiring.**

guru... ...ayot ba...haybat

...ovuz ...onta...ta

mas...araboz mi... pa...ta

3-mashq. Rasmdagi narsalar nomini ayting.



- So‘zlarni yozing.
- X va H harflarining tagiga chizing. Bu so‘zlarning yozilishini yodingizda saqlab qoling.

4-mashq. Ismlarda tushirib qoldirilgan X va H harflarini to‘g‘ri qo‘ying.

Mu...ayyo	Ma...kam	...ayrulla
...osiyat	Ma...mud	...usniyabonu

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga X yoki H harflaridan mosini qo‘yib, yangi so‘z hosil qiling.

jo‘ja – ...o‘ja	ko‘l – ...o‘l
Bilol – ...ilol	navo – ...avo
Vosil – ...osil	bola – ...ola

Baraka – tejamkorlikda.

1-mashq. Ikkala ustundagi so‘zlarni o‘qing. J harfi talaffuziga e’tibor bering.



J harfi	J harfi
jasur	projekto
jilg‘a	tiraj
jazo	jurnal
juma	jem
ijod	jirafa
jigar	ajdar
jism	garaj
jamalak	jemper

2-mashq. So‘roqlar o‘rniga mos so‘zlarni yozing. *J* tovushining talaffuziga e’tibor bering va *j* harflari tagiga chizing.





3-mashq. Nuqtalar o‘rniga J harfidan boshlanadigan to‘g‘ri javoblarni toping va o‘qing.

1. Tovuqning bolasi – joja
2. Kuchli yomg‘ir – jala
3. Butun dunyo – jahon
4. Jamilaning sochi – jingalak
5. Bir qop un, ichida ustun – ...
6. O‘zbekistondagi viloyat – ...
7. Futbolchilar guruhi – jamo
8. Sukut saqlash – jimlik
9. 2, 4, 6, 8 sonlari – juftlik
10. Bo‘yni eng uzun hayvon – ...



4-mashq. J harfi ishtirok etgan ismlar ustunini ko‘chirib oling va davom ettiring.

Qizlar ismi:	Yigitlar ismi:
Jamila	Javohir
...	...

Olim bolsang,
Olam seniki.

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga Q yoki G‘ harflaridan mosini qo‘yib o‘qing.





bo... **to...** **qishlo...**

- Hosil bo‘lgan so‘zlarni yozing. Ushbu so‘zlar talaffuzida qanday o‘zgarish bo‘lyapti?

2-mashq. Rasmlarni nomlab, she’rni ko‘chiri Q harfi bilan tugagan so‘zlar tagiga chizing.

Menda bor ikki ,
Ikki , ikki yonoq.
Burun, og‘iz va tomoq,
Ikki , ikki .

3-mashq. She’rni ifodali o‘qing.

Yaproqlar

Nur emishib quyoshdan,
Yaproqchalar yayraydi.
Bu quvonchga qo‘shilib,
Shoxda qushlar sayraydi.

Zumrad, yashil tovla
Shovullaydi bog‘lard
Soyasiga chorlaydi,
Kun qizigan chog‘lar

Qambar Ota

4-mashq. Masalni o‘qing.

Qaldirg‘och bilan Qarg‘a

Qaldirg‘och bilan Qarg‘a qay birimiz chiroyliroq, deb tortisha boshlashdi. Shunda Qarg‘a Qaldirg‘ochga dedi: “Sening chiroying faqat bahorda ko‘rinadi. Men bo‘lsam qish ayoziga ham chidab yashayveraman”.

Qissadan hissa shuki, uzoq umr ko‘rish go‘zallikdan afzaldir.

- Siz nima deb o‘ylaysiz, go‘zallik muhimmi yoki uzoq umr ko‘rish?
- Inson o‘z tashqi go‘zalligidan mag‘rurlanishi to‘g‘rimi?
- Qaldirg‘och va Qarg‘a so‘zlarini harf-tovush tomondan tahlil qiling.



Niyating – yõldoshing.

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

O‘zbek alifbosida 3 ta harf birikmasi bor. Bular – ng, sh, ch harf birikmalari.

n + g = ng

ng harf birikmasi hech qachon so‘z boshida kelmaydi:


tong


bodring


dengiz


rang

Alifbodagi bu belgi – **c** hech qachon alohida qo‘llanilmaydi. Faqat **h** harfi bilan birga **ch** harf birikmasini hosil qiladi.

c + h = ch


choynak


choy


chumchuq


chigirtka

Alifbodagi **s** va **h** harflarining birikishidan **sh** harf birikmasi hosil bo‘ladi.

s + h = sh


shakar


tosh


sham


sharbat

1-mashq. **ng, ch, sh harf birikmalaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.**

1. to ☐
2. te ☐
3. si ☐ il
4. bodri ☐
5. ☐ amol
6. be ☐ ik
7. si ☐ qon
8. ☐ aqmoq
9. ☐ u ☐ vara

- Ushbu so‘zlardan birortasini tanlab, gap tuzing.

2-mashq. **She’rni o‘qing.**

- She’rdagi ng, ch, sh harf birikmalari bor so‘zlarni topib ko‘chiring va tagiga chizing.

Qulupnay

Anorchaga o‘xshatmang.
Fonarchaga o‘xshatmang.
Adashmang-da, o‘rgilay,
Bibi qulupnay.
Jo‘yaklarda yursangiz,
Meni totib ko‘rsangiz,
Yorishadi ta’bingiz,
Qizaradi labingiz.

Anvar Obidjon

3-mashq. Jadvaldagi rasmlarni kuzating.

- Jadvalning o‘ng tomonidagi rasmlar chap tomondagilariga mosmi? Rasmlarni mazmuniga ko‘ra o‘zaro moslashtiring.

	Umidaga idishlarni artish uchun kerak –	
	Sardorga kiyim ilish uchun kerak –	
	Madinaga choy quyish uchun kerak –	

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

ng harflar birikmasi bitta undoshni ifodalaydi. Bu harflar birikmasini ikkita alohida n va g undoshlarini ifodalovchi harflarning ketma-ket kelishidan farqlash lozim. ng harflar birikmasi bir bo‘g‘in tarkibida, n va g harflari boshqa-boshqa bo‘g‘inlar tarkibida keladi:
1. Sen-ga, to-mon-ga. 2. Si-ngil, de-ngiz.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

4-mashq. She'rni ifodali o'qing.

Tayyorga ayyor nahang,
Tekinxo'r, takasaltang.
Qarmoqdagi o'ljaga,
Og'iz solgandi qarang.
Tumshug'idan ilinib,
Tipirchilar, holi tang.

- Ko'chiring. Harf birikmalarining tagiga chizing.



Sa’va sahar sayradi.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Tutuq belgisi (’) unli tovushdan keyin kelganda, unli tovushning cho‘ziqroq talaffuz qilinishini ifodalaydi:
ma’no, sa’va, e’tiqod, ne’mat, e’lon, da’vo, a’lo.



Tutuq belgisi (’) undosh tovushdan keyin kelganda, unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi:
san’at, jur’at, qal’a, qat’iy, sun’iy, sur’at, qit’a, in’om.

1-mashq. So‘zlarni o‘qing. Talaffuzdagi o‘zgarishga e’tibor bering.

- qal’a – qala
- sa’va – sava
- da’vo – dav
- sur’at – surat
- she’r – sher
- ta’na – tana

- So‘zlarni ko‘chiring va tutuq belgisi qatnashga so‘zlarning tagiga chizing.



2-mashq. So‘zlarni o‘qing.

- tatil
- mano
- shula
- mashal
- bazan
- tazim
- etibor
- masuliyat
- namatak

- Tutuq belgisi (’) qaysi harflar orasiga qo‘yilishi kerakligini aniqlang va yozing.



3-mashq. Maqollarni o‘qing. Ularni sharhlab bering.

**Shirin yuzingdan,
shirin so‘zing a’lo.**

**Tilga e’tibor –
elga e’tibor.**

**Har kungi va’dabozlikdan,
bir kungi jonbozlik yaxshi.**

- Tutuq belgisi (’) qatnashgan so‘zlar talaffuziga e’tibor bering va ularni ko‘chiring. Tutuq belgisi (’) qatnashgan so‘zlarning tagiga chizing.

Aytilishi va yozilishi farqlanuvchi undoshlar: b – p, v – f, g – k, d – t, z – s, j – ch, j – sh

Vataning tinch – sen tinch.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Yozuvda so‘z oxiridagi harf to‘g‘ri qo‘llanganini aniqlash uchun so‘z oxiridagi tovushga unli tovush qo‘shib talaffuz qilish kerak.



Eshitilishi	Yozilishi	Tekshirish
maktap	maktab	maktabi
aftobus	avtobus	avtobusi
tarvus	tarvuz	tarvuzi
farzant	farzand	farzandi
kitop	kitob	kitobi
bark	barg	bargi

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga *b* yoki *p* harflarining mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

rubo ...
ko‘ ...
iztiro ...
to‘ ...

B P

saba ...
g‘aza ...
tur ...
cha ...

2-mashq. Mos harflarni qo‘yib ko‘chiring.



Bolalar birgalikda she’r yo...(d–t)ladilar.



Shaharda balan... (d–t) binolar qurilmoqda.

3-mashq. Berilgan so‘zlar ishtirokida 3-4 ta gap yozing.

qog‘oz | javob | qand
oftob | so‘z | parvoz

Aytar sōzni ayt,
Aytmas sōzdan qayt.

1-mashq. She'rni o'qing.

Qizg'anchiq

Cho'ntagingda
Qand – jiq-jiq.
Bizgayam ber
Qizg'anchiq.
Doim yolg'iz
Qand yeysan,
Bir kun yomon
Pand yeysan!

Anvar Obidjon



- Qanday bolalarni qizg'anchiq deymiz?
- Bitta harf bilan ma'nosi o'zgarayotgan so'zlarni aniqlang.

2-mashq. O'qing. Katakchalarga mos undoshni qo'yib, so'zlarni yozing.

ovo	☐	Dilsho	☐
parvo	☐	Mahmu	☐
ram	☐	Sai	☐

3-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘qing. Ulardagi xatolarni toping va to‘g‘rilab ko‘chiring.



4-mashq. Maqollarni o‘qing.

Yoshning hurmati – qarz,
Qarining hurmati – farz.





Ilm – tubsiz quduq.

Kasbning yomoni yo‘q.



- Aytilishi va yozilishi farqlanuvchi so‘zlarni topib, tagiga chizing.

1-mashq. Testlarni yeching.

1. O‘zbek tilida nechta undosh tovush bor?
A) 6 ta D) 23 ta
B) 24 ta E) 30 ta

2. J harfi nechta tovushni ifodalaydi?
A) 1 ta D) 4 ta
B) 3 ta E) 2 ta

3. To‘rt harfdan iborat so‘zni belgilang.
A) dono D) maktab
B) quyosh E) vatan

4. Chumoli so‘zi nechta harfdan iborat?
A) 5 ta D) 4 ta
B) 7 ta E) 6 ta

5. Undosh tovushni ifodalamagan harf?
A) r D) i
B) x E) k

6. Tushirib qoldirilgan harfni toping.







A) d B) b D) f E) p

2-mashq. Hikoyani o‘qing.

Xayrli ish

Halima xola xavotirga tushdi. Xonada o‘tira olmay, hovliga chiqdi. Hovlidagi daraxtdan to‘kilgan xazonlarni xaskash bilan to‘pladi. So‘ngra nonga xamir qordi.

Bir mahal Mahmuda kiyimlari jiqqa ho‘l holda uyga kirib keldi. U ariqqa tushib ketgan mushukchani qutqarganini onasiga aytib berdi.

Halima xola rahmdil qizining qilgan ishidan xursand bo‘ldi. So‘ng ko‘zlari javdirab turgan mushukchani uyda qolishiga ruxsat berdi.



3-mashq. Rasmni kuzating. Yashiringan harflarni toping va so‘z yasang.



Oz sōzla – soz sōzla.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

So‘zlar bo‘g‘inlarga ajratiladi.

maktab **mak-tab**



1-mashq. Ertakni o‘qing.

Bo‘g‘inlar qanday paydo bo‘lgan?

Azaldan unlilar yaxshi qo‘shiq kuylashgan, undoshlar esa umuman kuylashni bilishmagan. Ular qanchalik harakat qilishmasin, baribir qo‘shiq kuylashni eplay olishmagan. Ular shamolga o‘xshab “sh-sh-sh”, ilonga o‘xshab “s-s-s”, qo‘ng‘izga o‘xshab “j-j-j” der yoki kuyga o‘xshamagan boshqa tovushlarni takrorlashgan.

Kunlardan bir kuni undoshlar unlilarning yoniga turib olishibdi, shunda ahil-inoq guruh – bo‘g‘inlar hosil bo‘libdi. Unlilar undoshlar bilan birga: “Ba-ra-kal-la! G‘a-la-ba!” deb kuylashibdi.



Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Unli tovushlargina bo‘g‘in hosil qiladi. So‘zning tarkibida nechta unli bo‘lsa, u shuncha bo‘g‘inga ajraladi.

Masalan: o-na, o-ta, a-ka, bo-la-lar-ning, ki-to-bi-miz, mak-ta-bi-miz-ga.



- Birinchi qoidani daftaringizga ko‘chirib oling va yod oling.

2-mashq. Hikoyani o‘qing.



- Ko‘rsatilayotgan hayvonlar nomini bo‘g‘inlarga ajratib yozing. Har bir so‘zda nechtadan bo‘g‘in bor?
- Unli harflar tagiga chizing.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Bo‘g‘inlar ikki xil bo‘ladi.

Ochiq bo‘g‘in	Yopiq bo‘g‘in
Unli tovush bilan tugagan bo‘g‘in: ta-la-ba, ki-tob.	Undosh tovush bilan tugagan bo‘g‘in: meh-nat-se-var.

3-mashq. O‘qing.

Qurbaqa va fil

Bor ekanda, yo‘q ekan, o‘rmonda nomi uchta bo‘g‘indan iborat mitti qur-ba-qa bo‘lgan ekan.

Shu o‘rmonda yana nomi bitta bo‘g‘indan iborat bo‘lgan ulkan fil ham yashagan ekan.

Mitti qurbaqa filni: “Shunaqa katta bo‘la turib atigi bitta bo‘g‘in, xa-xa-xa!” – deb masxaralar ekan...



- Avval bitta bo‘g‘indan, keyin esa uchta bo‘g‘indan iborat bo‘lgan ertak qahramoni nomini yozing.
- Har bir so‘zdagi unli va undosh tovushlarning sonini taqqoslang.

4-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ling.

kamalak	oftob	qo‘lqop
favvora	kutubxona	shifokor

5-mashq. Rasmda nimalar tasvirlangan? Ularning nomlarini yozing.



- Ularni bir so‘z bilan nima deyish mumkin?
- Avval bir bo‘g‘inli, so‘ng ikki va uch bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.
- Unli harflarning tagiga chizing.

Oz-oz organib dono bolur.

1-mashq. Bolaga ikki bo‘g‘inli, qizchaga uch bo‘g‘inli so‘zlarni ajratib olishga yordam bering.



- *Foydalanish uchun so‘zlar:* ovqat, sinfdosh, koinot, mehribon, piyola, pichoq, bo‘g‘irsoq, o‘quvchi.

2-mashq. Rasmda nimalar tasvirlangan?



- So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing.
- Har bir so‘zda nechta unli va undosh tovush borligini aniqlang.

3-mashq. Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri birlashtirib, so‘zlar hosil qiling.



- Hosil bo‘lgan so‘zlardagi unli harflar tagiga chizing.

4-mashq. Rasmda nimalar tasvirlangan?

Bog‘laringni sayr etganimda,
Sen bor eding qalbda, Vatanim.
Bog‘ husniga she’r bitganimda,
Uni dastlab senga atadim.

Minglab tilda madhingni so‘zlar
Bunda o‘sgan har bitta daraxt.
Nur emadi millionlab ko‘zlar,
Ko‘kdan sening husningga qarab.

Erkin Vohidov

- Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.

24-mavzu





Yo

S
b
o



1-m
qoi

chavan
chiroyli

- *Musiqa*
  Namun

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.



Bo‘g‘in ko‘chirilganda so‘zdagi bitta unli harf satrda qoldirilmaydi.

3-mashq. So‘zlarni o‘qing. Ular bo‘g‘inga to‘g‘ri ko‘chirilganini tekshiring.

… e-	… de-	… o‘-	… kash-	… pa-	… a
shik	raza	qish	fiyot	lov	kan

O‘ylab ko‘ring: so‘zlarni bo‘g‘inga ajratish bo‘g‘in ko‘chirish o‘rtasida qanday farq bo

4-mashq. O‘qing. She’rdagi so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi asosida yozing.

Ona

Oftobday kulib ona,

Har kim ekkanin ōrar.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Bir tovushni ifodalovchi ch, sh, ng, harf birikmalari bo‘g‘inga ko‘chirilganda bir-biridan ajratilmaydi.
Masalan: de-ngiz, ko‘-ngil, ish-chan.



1-mashq. O‘qing. Topishmoqlar javobini toping.

Ikki singil,
Og‘ir-yengil.



Tinmas bitta,
Tinglar mingta.



- Ko‘chiring. ng harf birikmasi qatnashgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi asosida yozing.

2-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib o‘qing.

ma’yus ta’til ma’lum me’mor ta’zim

- Bu so‘zlar keyingi satrga qanday ko‘chiriladi? So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib ko‘ring.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Tutuq belgisi (,) qatnashgan so‘zlar bo‘g‘in ko‘chirilganda tutuq belgisi birinchi bo‘g‘inda qoladi.

Masalan: ma’-no, sa’-va, san’-at, sur’-at.

So‘zlarda ketma-ket kelgan bir xil undosh harflar bo‘g‘in ko‘chirilganda bir-biridan ajratib yoziladi.

Masalan: kat-ta, var-rak, mil-lat, ham-ma, mu-saf-fo, mu-al-lim.



3-mashq. She’rni o‘qing va bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi asosida yozing.

Tushimda

Sakkiz ko‘zli alvasti
Men bilan xo‘b gaplashdi.
Bitta ko‘zin qildi lo‘q,
Ikkinchisi o‘ynar sho‘x.
Uchinchisin suzdi sal,
To‘rtinchisin qisdi sal.
Beshinchisi yiltirar,
Oltinchisi mo‘ltirar.
Yettinchisi yig‘lardi,
Oxirgisi uxlardi...

Anvar Obidjon



1-mashq. Testlarni yeching.

1. Berilgan so‘zlar orasidan noto‘g‘ri bo‘g‘inga ajratilgan so‘zni toping.
A) ka-bu-tar
B) daf-ta-rim
D) sin-glim
E) mak-ta-bi-miz

2. Berilgan so‘zlar orasidan to‘rt bo‘g‘inli so‘zni toping.
A) tomosha
B) ko‘kalamzor
D) sayyoh
E) oromgoh

3. Qaysi javobda “farishta” so‘zi bo‘g‘inga to‘g‘ri bo‘lingan?
A) fa-rish-ta
B) fa-ri-shta
D) far-ish-ta
E) fa-ris-hta

4. Yozuvda bo‘g‘in ko‘chirilganda satrda yolg‘iz qoldirilmaydigan so‘zlar qatorini toping.
A) ona, o‘tin, uka, asal, uzum
B) karam, tuxum, asal
D) poliz, poyabzal, uzum
E) oyna, ketmon, eshik

2-mashq. **Berilgan sxemaga mos bo‘g‘inli so‘zlar topib gap tuzing.**

Namuna:

Da-dam shi-fo-kor bo‘-lib ish-lay-di-lar.



1. 

2. 

3-mashq. **Berilgan bo‘g‘inlardan so‘z hosil qiling. Istalgan uchtasini yozing.**







4-mashq. **So‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing.**

Bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi	Bo‘g‘inga ajratish qoidasi

u-zum-zor, uzum-zor, a-yoz-bo-bo, ishonch-li, a-ka-jon, o-na-jon, o‘tin-chi, ozo-da, e-tik-do‘z, o-zo-da, imo-rat, e-kin-zor, ena-ga

Ariqni suv bezar,
Odamni – sōz.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

So‘z – nimanidir tushuntirish, ko‘rsatish, ifodalash uchun xizmat qiladigan eng kichik nutq vositasi.



uzum



...



...



...



...



Rasmda berilgan narsalarni so‘z bilan ifodalang.

1-mashq. **Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz? Ularning nomini ayting.**



Rasmdagi narsalar belgisini ayting.

Qanday
- mushuk?
- baliq?
- akvarium?

Rasmdagi narsalar harakatini ta’riflang.

- mushuk
- baliq

Nima qilyapti?

- Quyidagi so‘zlardan foydalanib, matn tuzing: kichkina, chiroyli, baliqlar, suzardi, suv, akvarium, mushuk, ko‘rib qoldi, panjasini tiqdi, ayyor, tutib olmoqchi…
- Tuzgan matningizga sarlavha qo‘ying va yozing.

E’tibor bering!

So‘zlar yordamida biz narsalarning nomini, belgisini va harakatini ifodalaymiz.



2-mashq. Sxemani izohlang.

So‘zlar

Shaxs va narsa	**Belgilari** (shaxs va narsaning)	**Harakati** (shaxs va narsaning)
Kim? Nima?	Qanday? Qanaqa?	Nima qildi? Nima qiladi? Nima qilyapti?
bulbul	*kichkina*	*uchadi*
qor	*sayroqi*	*sayraydi*
bolalar	*oppoq*	*yog‘adi*
yomg‘ir	*momiq*	*o‘qishadi*
ona	*quvnoq*	*o‘ynashadi*
shifokor	*bahorgi*	*tomchilaydi*

- Siz ham shunga o‘xshash misollar keltiring.

So‘zlar shaxs, narsa, harakat, belgi, sanoq va miqdorni ifodalaydi.



3-mashq. Aylanalarni moslashtiring.

Narsa belgisi	Narsa nomi	Narsa harakati
sayraydi pishadi o‘sadi	atirgul bulbul olma	shirin xushbo‘y sayroqi



4-mashq. Berilgan so‘zlarga mos shaxs-narsa nomini bildirgan so‘z topib yozing.

yumshoq ...	qo‘rqoq ...
mehribon ...	shirin ...
kichkina ...	qizil ...
moviy ...	chiroyli ...

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Vatan qadrini bilmagan,
Oz qadrini bilmas.



1. Do‘stimiz, qushlar, bizning.

2. Qushlar – bizning do‘stimiz.

- Nima deb o‘ylaysiz, berilganlarning qaysi biri so‘zlar, qaysi biri gap?

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Gap tugallangan fikrni bildiradi. Gap so‘zlardan tuziladi. Gapdagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi.

Masalan: Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q.




1-mashq. So‘zlarni o‘qing. Nima uchun bu so‘zlar gap hisoblanmaydi?

qish fasli onam ovqat

kumush o‘lkamiz mazali tayyorlaydi

- Berilgan so‘zlar ishtirokida gap tuzing va yozing.





2-mashq. Quyidagilar orasidan gaplarni aniqlab ko‘chiring, gap ekanligini izohlang.

1. **Oltin kuz keldi.**
2. **Bo‘ldi, paydo, osmonda**
3. **Xo‘roz don cho‘qiapti.**
4. **Mening do‘stim.**
5. **Quyosh yorqin nur sochmoqda.**



3-mashq. O‘qing.

KatakdagikaklikkaKarimkaftinitutdi.
Mardboshiniqilichkesmas.

- Gapni so‘zlarga ajratib o‘qing. Aniqlang, ushbu gaplardan qaysi biri tez aytish, qaysi biri maqol?
- Gaplarning boshi va oxirini aniqlab, tez aytish va maqolni yozing.

4-mashq. Rasmlarni kuzating. Savollar o‘rniga mos so‘zlarni topib, gaplarni ko‘chiring.



1. Aqlbek (Kim bilan?) (Nimani?) tomosha qildi.



2. (Kim?) (Kim bilan?) (Qayerda?) (Nima uchun?) (Qayerga?) ketyapti.




Bolalar (Nima bilan?) (Nima?) o‘ynashyapti.

Dili pokning – yõli pok.

O‘zingizni sinab ko‘ring!

1. **Gap nima?**
2. **Gap nimalardan tuziladi?**
3. **Gap haqida yana nimalarni bilasiz?**



Gapning tuzilish sxemasi.

Qish.

└_____.

Qish keldi.

└_____ _____.

Qahraton qish keldi.

└_____ _____ _____.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

1-mashq. Topshiriqni bajaring.

- Berilgan sxemaga mos gaplar tuzing.

1. ⌊_____ _____ _____.
2. ⌊_____ _____ _____ _____.

- Berilgan gaplarga mos sxema chizing.

1. Sherzod – a'lochi o'quvchi.
2. Maktabimizda katta gulzor bor.

2-mashq. Topshiriqni bajaring.



- Rasmni nomlang. Rasm asosida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing.

Bir yigitga yetmish hunar ham oz.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Xabar, darak mazmunini bildirgan gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi.
Tong otdi.
So‘roq mazmunini bildirgan gaplar oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi.
Tong otdimi?
His-hayajon mazmundagi gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi.
Tong otdi!

1-mashq. Gaplarni o‘qing. Gaplarni mazmuniga ko‘ra xabar, so‘roq va his-hayajon gaplarga ajrating va yozing.

- Qachon bahor keladi?
- Bahorda qushlar issiq o‘lkalardan qaytadi.
- Assalom, fasllar kelinchagi Navro‘zi olam!



2-mashq. O‘qing. Har bir gap oxiriga siz qaysi tinish belgisini qo‘ygan bo‘lardingiz?

Jala

Biz dalaga yetib kelganimizda ob-havo o‘zgara boshladi to‘satdan kuchli shamol ko‘tarildi birdan ulkan qora bulut osmonni qoplab, hamma yoq qorong‘i bo‘lib qoldi qayoqqa qochish kerak qayerga berkinish kerak mana hozir jala quyadi

- Gaplarning chegarasini aniqlab, kerakli tinish belgilarini qo‘ying. Nima uchun aynan shu tinish belgisini qo‘yganingizni izohlang.
- Matnni ko‘chiring.



3-mashq. Matnni o‘qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

Maktab hovlisi

O‘quvchilar maktab hovlisida gulzor barpo etishdi o‘g‘il bolalar yer chopishdi qiz bolalar gul ko‘chatlarini ekishdi har kuni o‘quvchilar gul ko‘chatlarini sug‘orishdi tez kunda maktab hovlisidagi gulzorda ochilgan gullarning xushbo‘y ifori hamma yoqqa tarala boshladi

- Matndagi gaplar chegarasini toping va ko‘chiring.

Inson – odobi bilan,
Osmon – oftobi bilan.

O‘zingizni sinab ko‘ring!

1. Og‘zaki nutqda bitta gap ikkinchi gapdan qanday ajratiladi?

2. Yozma nutqda bitta gap ikkinchi gapdan qanday ajratiladi?

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Yozma nutqda bitta gap ikkinchi gapdan nuqta (.), so‘roq belgisi (?) yoki undov belgisi (!) bilan ajratiladi.

Vergul (,) – eng qisqa (pauza) to‘xtashni bildiradi.

Masalan: Bog‘da olma, shaftoli, uzum, nok pishdi.



Nuqta, so‘roq belgisi va undov belgisi tinish belgilari deb ataladi.



1-mashq. **O‘qing. Qanday xatolarni ko‘rdingiz?**

Kim aybdor?

Ertalabdan Ahmad maktabga borishga otlandi paypog‘i qayerga yo‘qoldi ko‘ylagi qani nima uchun tuflisi kitob javonida turibdi bu narsalar qanday quloqsiz ekan-a biroq bunda narsalar aybdor emas unda kim aybdor

2-mashq. **Gaplarni o‘qing. Gaplardagi so‘zlarni tartib bilan o‘z o‘rniga qo‘ying. Gaplar oxiriga tegishli tinish belgilarini qo‘ying.**

1. shamol uchirdi havoga qoqigulni



2. nima uchun tikanli to‘ni tipratikanning





3. salom momo senga quyosh

3-mashq. **Topishmoqlarning javobini toping.**

Shakli o‘xshar o‘roqqa,
Doim tutar so‘roqqa. ?

O‘xshar mirzaterakka,
Yo‘lda turar doim tikka. !

Avval bil,
Keyin qil.

O‘zingizni sinab ko‘ring!

1. Matn _____ lardan iborat bo‘ladi.

2. Gap _____ lardan tuziladi.

3. Gap _____ fikrni ifodalaydi.

4. Gapdagi so‘zlar bir-biri bilan _____.



Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Barcha ertak, topishmoq, maqol, matal, hikoya va she’rlar matn hisoblanadi. Matnlardan og‘zaki va yozma nutqda foydalanamiz.



1-mashq. Matnni mazmuniga ko‘ra to‘g‘rilab o‘qing.

Shundan so‘ng tez orada go‘zal va xushbo‘y hidli bir gul ochilibdi.

Dunyoda bir mitti yomg‘ir tomchisi bo‘lgan ekan.

Kunlardan bir kun tomchining ko‘z yoshi yakka-yolg‘iz yerda yotgan urug‘ga tushibdi.

U ko‘pincha g‘amgin bo‘lib, tez-tez yig‘lar ekan.



- O‘ylab ko‘ring va gaplar ketma-ketligini to‘g‘rilab yozing. Gaplarga mos rasmlarni tanlang. Bu matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkin?

2-mashq. Rasmlarni kuzating. Reja asosida “Yosh bog‘bon” mavzusida matn tuzing.

Reja:

1. Mehnatsevar Anvar.
2. Ko‘chat parvarishi.
3. Mehnat ortida rohat.











Matn tuzish. Matn va gap farqlanishi. Matn qanday tuziladi?

3-mashq. Rasmlar asosida reja tuzing va kichik matnlar yozing. Matnlarga sarlavha toping.











Kelgusi chorakda ko‘rishguncha xayr!

MUNDARIJA

Kirish. Ona tili nima? 4

Matn va gap. Matn nima? Gap nima? 8

Til va nutq. Nutq nima? 10

Tovush va harf. Tovush nima? 14

Harf nima? 18

O‘zbek alifbosi. Alifbo nima? 20

Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar 22

Unli tovushlar 26

A va O unlisi 28

I va U unlisi 30

O‘ va E unlisi 32

Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar 34

Undoshlar. Undosh tovush va harf 38

X va H tovush va harflari 40

J tovush va harfi 42

Q va G‘ tovush va harflari 44

ng, sh, ch harflar birikmasi 46

Tutuq (') belgisi..... 50

Aytilishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlar
b–p, v–f, g–k, d–t, z–s, j–ch, j–sh..... 52

Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar..... 56

Bo‘g‘in. Bo‘g‘in nima?..... 58

Bo‘g‘in. Bo‘g‘inga ajratish..... 62

Bo‘g‘in. Bo‘g‘in ko‘chirish..... 64

Bo‘g‘in. Bo‘g‘in ko‘chirish. Qism II..... 66

Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar..... 68

So‘z. So‘z ma’nosi..... 70

Gap. Gap nima?..... 74

Gap. Gap qanday tuziladi?..... 78

Gap. Gap oxiriga qo‘yiladigan tinish belgilari..... 80

Tinish belgilari. Nuqta, so‘roq va undov..... 82

Matn tuzish. Matn va gap farqlanishi.
Matn qanday tuziladi?..... 84

Kitobni asrang!

Kitob – insonning eng yaqin yordamchisi. Kompyuter va gadjetlar ishdan chiqishi mumkin, ammo kitob doim biz bilan birga bo‘ladi. Kitob bizning do‘stimiz va ustozimiz hisoblanadi. Kitoblarni yaratish uchun ko‘plab insonlar mehnat qiladilar. Biz ajdodlarimizning dono o‘gitlarini kitoblar orqali o‘rganamiz. Ular hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlashimizda bizga yordam beradi. Agar kitobni asrab-avaylasak, u ko‘plab insonlarga uzoq yillar xizmat qiladi.

Kitob bizni bilim va quvonchlar bilan limmo-lim o‘zga bir tasavvurlar olamiga yetaklaydi. Vaqti kelganda u bizni Yer yuzidagi kichik hujayralardan tortib, okean hamda koinotda kechadigan turli voqea-hodisalar va ularning sirlaridan voqif qiladi.

Kitob bizni o‘ylashga, fikr yuritishga va to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi.



Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining F. I. Sh	O‘quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha sahifalar mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiqlari yo‘q.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

Yuldasheva Dilbar Shuxratovna

Ona tili
1-sinf
I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrir	*M. Nishonboyeva*
Badiiy muharrir	*D. Igorevna*
Musahhih	*X. Serobov*
Rassom	*D. Vetokhina, S. Sharapova*
Kompyuterda sahifalovchi	*S. To'ychiyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 30.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m2 qog'oz. Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8. Adadi 626 981 nusxa. Buyurtma raqami 23-567. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.